

**DASTLABKI TERGOV VA SURISHTIRUVDA MUDDATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSUAL QONUNCHILIGI VA XALQARO TAJRIBA
TAHLILI**

Turg'unov Bunyodbek Rustamjon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat–protsessual
huquqi sho'bası o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi
Telefon raqam: +998 99 011 44 74

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (JPK) doirasida dastlabki tergov va surishtiruvda belgilangan muddatlarning nazariy–huquqiy tahlili amalga oshirilgan. Xorijiy davlatlar Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya, Qozog'iston va AQSh – jinoyat protsessual qonunchiligidagi tergov muddatlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazilgan. Muddatlarning belgilanishi, uzaytirilishi va ularga rioya etilishi bo'yicha muammolar aniqlangan hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari jinoyat sudlov faoliyatida shaxs huquqlarini himoya qilish va adolatli muhokama tamoyilini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: dastlabki tergov, surishtiruvchi, tergov muddatlari, jinoyat protsessual kodeksi, qamoqda saqlash muddati, prokuratura nazorati, xalqaro tajriba, muddatlarni uzaytirish, huquqiy takomillashtirish.

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СРОКОВ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО РАССЛЕДОВАНИЯ И
РАССЛЕДОВАНИЯ: АНАЛИЗ УГОЛОВНО–ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА**

Тургунов Бунедбек Рустамжон угли,
Преподаватель кафедры
уголовного и процессуального права Ташкентского государственного
юридического университета Ташкент, Республика Узбекистан
Тел.номер: +998 99 011 44 74

АННОТАЦИЯ:

В данной статье проведён теоретико–правовой анализ сроков, установленных в ходе предварительного расследования и дознания в рамках Уголовно–процессуального кодекса Республики Узбекистан. Проведён сравнительный анализ со сроками расследования в зарубежных государствах – России, Германии, Франции, Казахстане и США. Выявлены проблемы применения, продления и соблюдения процессуальных сроков, а также разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: предварительное расследование, дознание, процессуальные сроки, уголовно–процессуальный кодекс, стражи под стражей, прокурорский надзор, международный опыт, продление сроков.

ISSUES OF IMPROVING TIMEFRAMES IN INITIAL INVESTIGATION AND INQUIRY: ANALYSIS OF THE CRIMINAL PROCEDURAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL PRACTICE

Turg'unov Bunyodbek Rustamjon o'g'li,
Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law of
Tashkent State University of Law Tashkent, Republic of Uzbekistan
Phone number: +998 99 011 44 74

ABSTRACT:

This article provides a theoretical and legal analysis of the timeframes established during preliminary investigation and inquiry under the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. A comparative analysis with investigation timeframes in foreign states – Russia, Germany, France, Kazakhstan, and the United States – is conducted. Problems related to the establishment, extension, and compliance with procedural timeframes are identified, and scientifically grounded proposals for improving legislation are developed. The research results serve to protect individual rights in criminal justice and ensure the principle of fair trial.

Keywords: Preliminary investigation, inquiry, investigative timeframes, Criminal Procedure Code, detention period, prosecutorial supervision, international experience, extension of timeframes, legal reform.

KIRISH:

Jinoyat protsessual qonunchiligida muddatlar masalasi har doim dolzarb ko'rib kelingan. Insonning erkinligi va daxlsizligi, uning huquqiy himoyasi ko'p jihatdan tergov va surishtiruvning belgilangan muddatlar doirasida amalga oshirilishiga bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar jadal sur'atda rivojlanib borayotgan bugungi kunda dastlabki tergov va surishtiruvdagi muddatlarni takomillashtirish masalasi yangicha mazmun va ahamiyat kasb etmoqda.

Dastlabki tergov muddatlari masalasi bir necha jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi: birinchidan, bu fuqarolarning erkinlik huquqini bevosita cheklash bilan bog'liq; ikkinchidan, tergov muddatlarining to'g'ri belgilanmasligi jinoyatga oid ishlarning sifatsiz ko'rib chiqilishiga olib kelishi mumkin; uchinchidan, muddatlarning uzaytirilishi yuzasidagi qonunchilik talablarining noaniqligi amaliy muammolarga sabab bo'lmoqda.

TADQIQOTNING MAQSADI VA METODOLOGIYASI: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida mustahkamlangan dastlabki tergov va surishtiruvga oid muddatlarni tahlil qilish, ularni xorijiy davlatlar qonunchiligidagi tegishli muddatlar bilan qiyosiy o'rganish hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: qiyosiy–huquqiy tahlil metodi (turli davlatlar qonunchiligi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash maqsadida); sistemali tahlil metodi (muddatlarga doir normalarning bir–biri bilan aloqadorligini o'rganish); formal–yuridik metod (qonun normalarini grammatik va mantiqiy jihatdan sharhlash); statistik tahlil metodi (amaliyot ko'rsatkichlarini baholashda).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSUAL KODEKSIDA TERGOV MUDDATLARI, HUQUQIY TAHLIL: O‘zbekiston Respublikasining 2021–yil 1–sentyabrdan kuchga kirgan yangi Jinoyat protsessual kodeksi (bundan buyon – JPK) dastlabki tergov va surishtiruvga oid muddatlarni yangi talablar asosida qayta belgiladi. Ushbu jarayon O‘zbekiston jinoyat protsessual huquqidagi muhim islohotlardan biri hisoblanadi.

JPKga ko‘ra, dastlabki tergov ikkita asosiy bosqichdan iborat: surishtiruvchi va tergovchi faoliyati. Surishtiruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tergov protsessual harakatlarning nisbatan qisqaroq muddatda yakunlanishini ko‘zda tutadi, tergovchi esa ko‘proq muddatga ehtiyoj sezadigan murakkab ishlarni olib boradi.

Surishtiruvga oid muddatlar. JPKning 381⁷–moddasiga muvofiq, surishtiruvchi tomonidan o‘tkazilayotgan surishtiruv harakatlari 1 oylik muddatda yakunlanishi lozim. Prokuraturaning ruxsati bilan 381⁷–moddasi 7-qismiga ko‘ra bu muddat 20 kungacha uzaytirilishi mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, yangi JPK tergov va surishtiruvni farqlash borasida muhim qadamlarni amalga oshirdi. Agar ilgari surishtiruvga oid muddatlar nisbatan chalkash tartibda belgilangan bo‘lsa, yangi kodeks bu borada aniqlik kiritdi. Lekin kamchiliklar mavjud.

Dastlabki tergov muddatlari: JPKning 351–moddasiga ko‘ra, tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan dastlabki tergov uch oy muddatida yakunlanishi kerak. JPK 351–modda 6-qismga ko‘ra dastlabki tergov muddati tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va unga tenglashtirilgan prokuror tomonidan besh oygacha uzaytirilishi mumkin, JPK 351–modda 7-qismga ko‘ra keyinchalik dastlabki tergov muddati faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosarlari tomonidan yetti oygacha uzaytirilishi mumkin.

XALQARO TAJRIBA, QIYOSIY TAHLIL: xalqaro tajribani o‘rganish jinoyat protsessual huquqidagi muddatlar masalasini yangi nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga imkon beradi. Turli huquqiy tizimlar ushbu masalaga turlicha yondashadi, bu esa ularning ijtimoiy–siyosiy tuzimi, huquqiy an‘analari va inson huquqlariga bo‘lgan munosabatlari bilan bog‘liq.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi: Rossiya Federatsiyasining Jinoyat protsessual kodeksi (RFjpk, 2001) tergov muddatlari bo‘yicha O‘zbekiston qonunchiligiga bir qator jihatdan o‘xshash tizimni o‘z ichiga oladi. RFPJK 162–moddasiga ko‘ra, dastlabki tergov 2 oy muddatida yakunlanishi kerak. Biroq bu muddat tergov bo‘limi rahbari tomonidan 3 oyga, prokuratura tomonidan 12 oyga uzaytirilishi mumkin. Federal prokuratura rahbarining qaroriga ko‘ra esa muddatni yanada uzaytirish imkoniyati mavjud. Rossiya amaliyotida surishtiruvga oid muddatlar maxsus tartibda belgilangan: RFPJK 223–moddasiga ko‘ra, surishtiruvchi 30 kun muddat ichida ish bo‘yicha qaror qabul qilishi kerak, ammo prokuratura ruxsati bilan bu muddat 6 oygacha, ba’zi hollarda esa 12 oygacha uzaytirilishi mumkin. Bunday uzun muddatlar amaliyotda tanqid ob’ektiga aylangan, chunki ular shaxsning noaniqlik holatida qolish muddatini uzaytiradi.

Germaniya tajribasi: Germaniya jinoyat protsessida tergov muddatlariga yondashuv tubdan farqli. Germaniya Jinoyat protsessual tartib qoidalariga (Strafprozeßordnung – StPO) ko‘ra, tergov muddatlari qat’iy ravishda belgilanmagan, balki “ma’qul muddat” (angemessene Frist) printsipli qo‘llaniladi. Biroq

qamoqda saqlashga nisbatan juda qattiq muddatlar belgilangan: boshlang'ich hibsga olish 6 oy bilan cheklangan va sudning qarorisiz uni uzaytirish mumkin emas. Germaniyaning ushbu yondashuvining afzalligi shundaki, u tergov organlari uchun ortiqcha byurokratik to'siqlar yaratmaydi, biroq sud nazorati mexanizmi orqali shaxsning huquqlari kafolatlanadi. StPO § 121 va § 122–moddalari qamoqda saqlashning har 3 oyda sud tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi. Bu "muddatli sud nazorati" modeli ko'plab Yevropa mamlakatlarida na'munaviy sifatida qabul qilingan.

Fransiya tajribasi: Fransiya jinoyat protsessida ikki bosqichli tizim mavjud: birinchi bosqich – politsiya surishtiruvchilari tomonidan olib boriladigan "enquête préliminaire" (dastlabki surishtirish), ikkinchi bosqich – "instruction" deb ataladigan sud tekshirishi (juge d'instruction – tekshirish sudyasi tomonidan). Fransiya protsessining o'ziga xos xususiyati shundaki, og'ir jinoyatlar bo'yicha ish mustaqil "instruction" sudyasiga o'tkaziladi va tergov muddati nazariy jihatdan 4 yilgacha cho'zilishi mumkin. Qamoqda saqlash (garde à vue) boshlang'ich ravishda 24 soat bilan cheklangan bo'lib, prokuratura ruxsati bilan 48 soatga, terrorchilik va uyushgan jinoyatchilik hollarda esa 96 soatga uzaytirilishi mumkin. Fransiya Konstitutsion kengashi va Evropa Inson Huquqlari Sudi bir necha bor ushbu muddatlarning konvensiyaviy talablarga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqqan.

Qozog'iston Respublikasi tajribasi: O'zbekistonga qo'shni Qozog'iston Respublikasining 2014–yilgi yangi tahrirdagi JPK tergov muddatlari borasida O'zbekiston qonunchiligiga o'xshash tuzilishga ega. Qozog'iston JPKi 192–moddasiga ko'ra, dastlabki tergov 2 oy muddatida yakunlanishi kerak. Prokuratura tomonidan muddat 12 oygacha uzaytirilishi mumkin. Qozog'iston amaliyotining o'ziga xos jihati shundaki, 2014–yildan boshlab surishtiruvchi va tergovchi vakolatlari qat'iy chegaralangan, bu esa muddatlarga rioya etilishini yaxshilashga hissa qo'shgan.

AQSh tajribasi: Amerika Qo'shma Shtatlari federal jinoyat protsessida tergov muddatlariga yondashuv tubdan farqlidir. AQShda "Grand Jury" (katta hakamlar hay'ati) tizimi mavjud bo'lib, u prokuratura tomonidan mustaqil tergov o'tkazish imkoniyatini qonuniylashtirilmagan muddatda belgilaydi. Federal qonunchilik "Speedy Trial Act" (Tez muhokama to'g'risidagi qonun, 1974) qo'zg'atilgan ishni 70 ish kunida ko'rib chiqishni talab qilsa ham, tergov bosqichi uchun qat'iy muddatlar belgilanmagan. Biroq AQSh Konstitutsiyasining VI Tuzatmasida (THE SIXTH AMENDMENT) "tez va oshkora muhokama" huquqi kafolatlangan. Bu konstitutsiyaviy norma tergov organlarini samarali harakat qilishga majbur qiladi. Qamoqda saqlashga nisbatan esa federal qonunchilik ayblanuvchini hibsga olishdan keyin 72 soat ichida sudya oldiga chiqarishni talab qiladi.

MUAMMOLAR VA TAHLIL: O'zbekiston Respublikasi JPKsidagi muddatlarga oid normalarni va xorijiy tajribani tahlil qilish quyidagi asosiy muammolarni ko'rsatmoqda:

Muddatlarning amalda bajarilmasligi muammosi: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi statistikasiga ko'ra, so'nggi yillarda jinoyat ishlarining muayyan qismi belgilangan muddatlarda yakunlanmayapti. Bu holat bir necha omil bilan bog'liq: birinchidan, tergovchilar yuklamasi nihoyatda katta; ikkinchidan, texnik–kriminalistik ekspertizalar ko'p muddat oladi.

Uzaytirish tartibining murakkabligi va noaniqligi: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 351-modda 8- qismiga ko'ra tergov muddatini uzaytirish haqidagi iltimosnomani tergovchi tergov muddati tugashidan kamida o'n sutka ilgari prokurorga topshiradi deb yozilgan norma mavjud. Ya'ni tergovchi muddat yetmayotgan bo'lsa qo'shimcha muddat olish uchun 10 kun oldin iltimosnoma bilan chiqishi kerak. Ammo bu tartib surishtiruvda berilmagan. Bir oylik muddatining xohlagan paytida berish mumkin degan xulosa mavjud va amaliyotda ham shunday. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga surishtiruv muddatini uzaytirish uchun ham iltimosnoma qilish muddatini belgilash shart. Misol uchun 5 kun oldin.

To'xtaligan tergov yoki surishtiruv muddatini tiklash muammosi: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 364-moddasda dastlabki tergovni to'xtatish asoslari va tartibi berilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 351-moddasi 7-qismiga ko'ra ish qo'shimcha tergov o'tkazish uchun qaytarib yuborilganda, shuningdek to'xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanganda qo'shimcha tergov muddati mazkur ishni tergovchi qabul qilgan paytdan e'tiboran **bir oy** doirasida belgilanadi. Bu muddatni yanada uzaytirish ish prokurorga berilgunga, to'xtatib turilgunga yoki tugatilgunga qadar o'tgan tergov muddati hisobga olingan holda umumiy asoslarda amalga oshiriladi deb berilgan. Bu normada tushunarsiz. Nega? Misol uchun 3 oylik tergov muddatidan 1 oy tergov qilindi va jinoyat ish to'xtalindi. Demak tergovchida 2 oylik muddat qoldi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 351-moddasi 7-qismiga ko'ra tergovchida ish tiklanganda **bir oylik** muddat qolishi belgilangan. Bu tushunarsiz norma.

Surishituvdan tergovga o'tgan jinoyat ishlarining muddat masalasi: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining **381¹-moddasiga** ko'ra surishtiruvni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxslar berilgan. Surishtiruvni ushbu Kodeksda belgilangan hollarda prokurorlar va tergovchilar ham amalga oshirishi mumkin deb yozilgan norma mavjud. Lekin jinoyat ishi surishtiruvdan tergovga o'tkazilganda surishtiruvdagi jinoyat ishini muddati qanday tartibda hisoblanishi masalasi ham JPK da ochiq qoldirilgan.

Ekspertiza muddatlarining hisobga olinmasligi: ko'plab jinoyat ishlarida ekspertiza xulosasini kutish umumiy tergov muddatining 30–50 foizini egallaydi. Amaldagi qonunchilik ekspertiza muddatlarini tergov muddatlaridan alohida tartibga solmaydi, bu esa amaliyotda nohaq uzaytirish holatlarini keltirib chiqaradi. Qozog'iston tajribasi ko'rsatadiki, ekspertiza muddatlarini alohida normalashtirish ushbu muammoni sezilarli darajada kamaytiradi.

TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR: Amalga oshirilgan tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi JPKini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 351-modda 8- qismiga ko'ra Tergov muddatini uzaytirish haqidagi iltimosnomani tergovchi tergov muddati tugashidan kamida o'n sutka ilgari prokurorga topshiradi deb yozilgan norma mavjud. Ya'ni tergovchi muddat yetmayotgan bo'lsa qo'shimcha muddat olish uchun 10 kun oldin iltimosnoma bilan chiqishi kerak. Ammo bu tartib surishtiruvda berilmagan. Bir oylik muddatining xohlagan paytida berish mumkin degan xulosa mavjud va amaliyotda ham shunday. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga

surishtiruv muddatini uzaytirish uchun ham iltimosnoma qilish muddatini belgilash shart. **Misol uchun 5 kun oldin.**

JPKga ekspertiza muddatlarini umumiy tergov muddatlaridan alohida hisoblaydigan norma kiritilishi maqsadga muvofiq. Bunga ko'ra, sud-tibbiy, moliyaviy yoki kriminalistik ekspertizasi o'tkazilayotgan davrda tergov muddatining to'xtatilishi nazarda tutilishi mumkin. Biroq bunday to'xtatish 3 oydan oshmasligi lozim. **Qozog'iston va Latviya tajribasi ushbu yondashuv samarali ekanligini tasdiqlaydi.**

To'xtaligan tergov yoki surishtiruv muddatini tiklash muammosi: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 364-moddasda Dastlabki tergovni to'xtatish asoslari va tartibi berilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 351-moddasi 7-qismiga ko'ra ish qo'shimcha tergov o'tkazish uchun qaytarib yuborilganda, shuningdek to'xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanganda qo'shimcha tergov muddati mazkur ishni tergovchi qabul qilgan paytdan e'tiboran **bir oy** doirasida belgilanadi. Bu noaniq norma mana shuning uchun 351-7 qismga o'zgartirish kiritish zarur.

Surishituvdan tergovga o'tgan jinoyat ishlarining muddat masalasida amiq muddat berish kerak. Jinoyat ishi surishtiruvdan tergovga o'tkazilganda surishtiruvdagi jinoyat ishini muddati qanday tartibda hisoblanishi masalasi ham JPK da ochiq qoldirilgan. Buni aniq belgilash zarur. Misol uchun jinoyat ishi surishtiruvdan tergovga o'tkazilganda tergov muddatining umumiy qoidalari amal qiladi deb yozilgan norma kiritish asosli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga yuqorida berilgan takliflarga asosan tergov muddatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish zarur. Mana shu normalar orqali O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksidagi kamchiliklar bartaraf etiladi.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. 2021-yil 1-sentyabrdan kuchga kirgan. - T.: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). - T.: O'zbekiston, 2023.
3. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat protsessual kodeksi (18.12.2001 y. № 174-FZ). - M.: Prospekt, 2023.
4. Strafprozeßordnung (StPO) - Germaniya Jinoyat protsessual kodeksi. Oxirgi tahrir: 2023. - www.gesetze-im-internet.de
5. Code de procédure pénale - Fransiya Jinoyat protsessual kodeksi. - Légifrance, 2023.
6. Qozog'iston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. 2014-yil 4-iyuldagi № 231-V QRZ. - Nur-Sultan: Zan, 2022.
7. United States Code, Title 18 (Speedy Trial Act, 1974). - US Government Publishing Office, 2022.
8. Evropa Inson Huquqlari Konventsiyasi (1950). 5 va 6-moddalar. - Strasburg: Evropa Kengashi, 2010.
9. Inogamova-Xegay L.V. Ugolovnoe pravo. Obshchaya chast'. - M.: Infra-M, 2020.
10. Yusupov M.A. O'zbekiston Respublikasida jinoyat protsessual islohotlar: nazariya va amaliyot. - T.: TDYU nashriyoti, 2022.
11. Toshmatov J.A. Jinoyat protsessida sud nazorati: muammolar va yechimlar. - T.: O'zbekiston, 2021.
12. Nazarov Sh.B. Dastlabki tergov institutining takomillashtirilish tendensiyalari // Huquq va boshqaruv. - 2023. - № 3. - 45-52 b.

13. Seitz A. Die Untersuchungshaft im deutschen Strafprozessrecht. - Frankfurt: Peter Lang, 2019.
14. Pradel J. Procédure pénale comparée. - Paris: Cujas, 2020.
15. Fair Trial Standards in Criminal Proceedings: UN Human Rights Committee General Comment No. 32 (2007).